

## ABDURAUF FITRATNING MILLIY CHOLG'U ASBOBLARI HAQIDAGI QARASHLARI

**Annotatsiya.** Jadid ma'rifatparvarlari ijodida musiqa o'rin tutadi. Xususan, bu borada Abdurauf Fitratning olib borgan ilmiy faoliyati diqqatga sazovor. Maqolada uning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asari haqida fikr yuritilgan va musifashunos olimning o'zbek milliy cholg'u asboblari haqidagi kuzatishlari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek cholg'u asboblari, chang, g'ijjak, chanoq, xarrak, nay, qo'shnay, surnay, balabon, karnay, doira, nog'ora.

### ВЗГЛЯДЫ АБДУРАУФА ФИТРАТА НА НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ

**Аннотация.** Видение музыки занимает важное место в творчестве джадидских просветителей. В частности, в этом отношении заслуживает внимания научная деятельность Абдурауфа Фитрата. В статье рассматривается его работа "Узбекская классическая музыка и ее история" и анализируются наблюдения ученого-музыковеда об узбекских национальных инструментах.

**Ключевые слова:** узбекские инструменты, Чанг, гиджак, Чанак, харрак, флейта, сосед, труба, балабон, труба, круг, барабан.

### ABDURAUF FITRAT'S VIEWS ON NATIONAL INSTRUMENTS

**Annotation.** Musical views are central to the work of the Jadid enlightenment. In particular, the scientific work of Abdurauf Fitrat in this regard is noteworthy. The article reflects on his work "Uzbek classical music and its history" in the Haik and analyzes the observations of the musifashunos scholar on Uzbek national instruments.

**Keywords:** Uzbek instruments, dust, goosebumps, chanoq, Kharrak, flute, qoshay, surnay, balabon, trumpet, circle, drum.

"O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asari Abdurauf Fitratning musiqa ilmini chuqur egallanganligini ko'rsatib turadi. Ayniqsa, mutafakkir olimning o'zbek cholg'u asboblari, ularning kelib chiqishi, tuzilishi va asosiy vazifalari haqidagi qarashlari o'zbek milliy musiqasini tarixini yaratishga xizmat qiladi.

Olim **chang** musiqa asbobi haqida yozadi: "Birga quyulg'an ikki ingichka cho'p yo qamish bilan chalinadir. O'n ikki qator tori bor, har qatorida uchtadan tor bo'ladi. Torli cholg'ularning hammasig'a qo'shuladi. Jonli bir tovushi bor"[33]. Bu ta'rifdan chang asbobi ikkita ingichka qamishdan tuzilganligi, 12 qator torning har qatorida uchtadan tori borligi va ular birlashgan holda musiqa, ohang hosil qilishini bilib olish mumkin. Yoki **g'ijjak** haqida u yozadi: "Bu ham yon bilan chalinadir. Chanog'i Hindiston javzidir. Tut yog'ochidan, ma'dandan yasalsa ham bo'ladi. Sopi 40-42 santimetr qadar uzunlikda bir yog'ochdir. Chanoqdan tuban 20-23 santimetr qadar uzunlikda bir temir quyrug'I bor. Chanog'i qalin teri bilan qoplanadi. Xarrak butun cholg'ularga teskari chanoqning yuqori tomonig'a quyiladi. Tori uchtadir. Hofiz Darvesh Aliy o'z risolasida g'ijjak tovushining quloqqa yoqmag'anini yozadirkim, bu kun ham bu haqda bundan ortiq so'ylab bo'lmaydi" [33-b]. Ko'rinadiki, g'ijjakning yon tomondan chalinishi uni boshqa cholg'ulardan farqlab turadi. Qolaversa, uning tuzilishi ham to'g'ri va aniq ko'rsatib berilgan. Ta'rifdan anglash mumkinki, g'ijjak tut daraxtidan yasalgan, uning sopi 40-42 sm, chanoqdan past 20-23 smni tashkil etgan. Shu bilan birga, chanog'i qalin teri bilan qoplangan, xarrak esa chanoqning yuqori qismiga qo'yilgan, tori uchtadan iborat. Demak, musiqashunos olim g'ijjak bilan bog'liq chanoq, quyruq, xarrak, tor kabi terminlarni ham o'rinli ishlatgan. Eng muhimi, uning o'zigacha shu sohada amalga oshirilgan musiqiy risolalarni, ayniqsa, Hofiz Darvesh Aliyning risolasini sinchiklab o'rganganligi tahlillarda ko'rinib turadi. Fitrat g'ijjak ohangidagi o'ziga xos noziklikni shu olim fikrlariga tayanib ko'rsatadi va bu cholg'u tovushidagi yoqimsizlikni g'am alohida ta'kidlaydi. Ayniqsa, g'ijjak tortilgan

vaqtda shuni kuzatish mumkin.

Ma'lumki, **nay** qadimgi cholg'u asboblardan biridir. Bugungi kuylarimizda ham uning o'rni alohidalik kasb etadi. Bu haqda mutafakkir olim yozadi: "Nay" qamish ma'nosida forsiycha bir so'zdir. Bizda birinchi yo'q baqirdan yasalar. 32-34 santimetr uzunligida bo'lub, yetti yeridan teshilgandir. Teshiklardan birtasi yuqori tomonda, oltitasi quyi tomondadir. Yuqori tomondagi teshikka og'iz quyub, puflaydirlar. Quyi tomondagi teshiklarni barmoq bilan yopib-ochib pardalarni ko'rsatadirlar. Ikki nay bir rubobning qo'shulub chalishi juda chiroylik chiqadir" [33-b]. Demak, olim cholg'u asbobi nomining lug'aviy ma'nosiga, etimologiyasiga e'tibor qaratadi. Uning forsiycha so'z ekanligi, qamish ma'nosini bildirishi, birinchi yoki baqirdan yasalishi, 32-34 sm bo'lishi, yetti yeridan teshilganligi, ularning joylashuv o'rni haqidagi aniq ma'lumotlar cholg'u asbobini ko'z oldimizga keltiradi. Yana bir jihati, olim nayning rubob ohangi bilan uyg'unlik kasb etishini qayd etadi.

**Qo'shnay** asbobi ham milliy cholg'ularimiz qatorida turadi. Olimning fikricha, bu nihoyatda qadimiydir: "Fikrimizcha bizda cholg'ularning eng ibtidoiysi "qo'shnay"dir. Bu kun oradan chiqmoq uzradir. Juda yoniq bir tovushi bor. Ikki qamishni yonma-yon qo'shib bog'laydirlar. Har ikkisini ham bosh tomonlaridan kesib, "til" chiqartiradilar-da, og'izga quyub puflaydirlar" [33-b]. Ushbu qarash qo'shnayning naydan ham oldin qo'llanilganligini asoslab turadi. Biroq Fitrat zamonida va hozirda bu cholg'u oz ishlatiladi. Qo'shnay ikki qamishni yonma-yon qo'yish natijasida yasalar. Uni og'iz bilan puflab, chalish mumkin.

**Surnay** o'zbek to'ylarini qadimdan bezab kelgan. Buni ham Fitrat "puflanib chalinadigan" cholg'ular qatoriga kiritadi: "Butun cholg'ular tut yog'ochdan yasalg'ani holda, "sunray" o'ruk yog'ochdan yasalar. Bir yonida yeti teshigi bo'ladi, bir yonida bir teshik. Baqirdan-kumushdan yasalg'an bir naychani og'izga qoyub, uning uchiga qamishdan bir til bog'lab chaladirlar. Uzoqdan eshitilishi yaxshidir" [34-b]. Olim kuzatishlaridagi yana jihat e'tiborli. U boshqa cholg'ularning yog'ochdan, surnayning esa o'rik daraxtidan yasashini aytadi. Bu esa olimning cholg'u asboblarning nimadan yasashini ham yaxshigina farqlay olganligini ko'rsatadi. Surnay ham puflab chalinadigan cholg'ular qatorida turadi. Faqat uning tovushi, Fitrat, ta'kidlaganidek, uzoqdan eshitilganda kishiga xush yoqadi. Zero, bu cholg'u hoo'rgacha o'zbek to'ylarini bezab keladi. Shusiz o'zbek to'ylarida fayz bo'lmaydi.

**Balabon** ham o'zbek to'ylarida ishlatiladigan cholg'u turi hisoblanadi. Bu haqda Fitrat yozadi: "Bu ham o'ruk yog'ochdan yasalar. Surnayning kichkinasidir. Torli cho'g'ularga, ayniqsa, tanburg'a, juda yaxshi qo'shiladi". Darhaqiqat, surnay ham o'rik daraxtidan yasali, surnayning kichkinasi hisoblangan.

O'zbek to'ylarining debochasi va muayyan o'rinlarida **karnay** cholg'u asbobi ko'p qo'llaniladi. Bu cholg'usiz to'y to'yga o'xshamaydi. Uning tuzilishi haqida Fitrat yozadi: "Ma'dandan yasalg'an juda uzun bir quroldir. Pardalari yo'q. Qo'qunch bir tovush bor. Urushlarda, yig'in, to'y e'lonlarida ishlatiladi"[34-b.]. "Ma'dan" so'zining ikkinchi ma'nosi inobatga olinsa (har bir narsaning asl joyi [2,376]), bu asbob asl yog'ochdan yasalg'an, unda boqa cholg'ularga o'xshab parda bo'lmaydi. Mashshoq puflash yo'li bilan musiqa hosil qiladi. Fitrat buni "qo'rqunch" tovush deydi. Qadimda urushlar, turli yig'inlar va to'ylar boshlanishidan oldin karnay chalingan. Bu esa nimadir katta marosim boshlanishidan xabar bergan. Hozirda ham shu an'ana davom etyapti. Yurtimizdagi to'ylar, turli tantanali marosimlar, xalq sayillarini shu cholg'u asbobisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Milliy cholg'ulardan yana biri **doiradir**. Bu haqda Fitrat quyidagilarni yozadi: "Bir yuzi kiyik yo'echki terisi bilan qoplang'an yog'och chanbardan iboratdir. Usul saqlag'anda barmoq bilan chertiladi. Bir chetiga chertkanda "bak" tovushini, o'rta tomoniga chertkanda "bum" tovushini beradi" [34-b.]. E'tibor berilsa, musiqashunos olim doiraning tuzilishi haqida ham qimmatli ma'lumotlarni bergan. Ya'ni uning yog'och chanbar – aylanasi kiyik yoki echki terisi bilan qoplanishi, barmoq bilan chertilishi boshqa cholg'ulardan ajratib turadi. Yana bir nozik jihat olimning nazaridan chetda qolmagan: doiraning chetiga chertganda "bak", o'rtasiga chertganda "bum" tovushini chiqarishidir. Shundan bo'lsa kerak, u o'zbek arauzi qoidalarini ishlab chiqayotganda, doiraning shu tovushlarini inobatga olgan. Mazkur cholg'u asbobi ham o'zbek to'y marosimlari, xalq bayramlarini bezab turadi.

Fitrat yana bir milliy cholg'u asbobi – nog'orani ham ta'riflagan: "Loydan yasali pishirilg'an "sopol"dir. Yuzini qalin teri bilan qoplaydirlar, ikkitasini qo'sh qoyub, ikkita nozik yog'och bilan chaladirlar. Surnay chalg'anda usulni nog'ora bilan saqlaydirlar. Zotan, nog'orada har kuyning usuligina chalinadi. Nog'oraning o'ziga ham maxsus usullar bor, bular yolg'izgina nog'orada chalinadi" [34-b.]. Darhaqiqat, nog'ora va karnay qo'sh holda ishlatiladi. U sopoldan – pishirilgan loydan yasalar, yuziga – ustiga qalin teri qoplanadi. Bu cholg'uning ham ishlatilish usuli bor: u qo'l bilan ikkita nozik yog'och qo'sh holda teri bilan qoplang'an nog'ora yuziga urilishida kuy hosil bo'ladi. Uning tovushi chalinadigan muayyan kuyning ora-oralarida quloqqa eshitiladi. Olim yana bir jihatga e'tibor qaratadi: u surnay bilan birga ishlatiladi va ikkalasi birlikda chiroyli ohangni hosil qiladi.

Demak, Fitrat chang, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, balabon, karnay, diora, nog'ora kabi cholg'ularnin spetsifik belgilarini: nimadan yasalishini, qanday chalinishini nihoyatda mahorat bilan ochib bergan. Bular orasida qo'l yordamida, puflash yo'li bilan chalinadigan asboblarni ajratib ko'rsatadi. Umuman olganda, musiqashunos olim Abdurauf Fitrat o'zbek milliy cholg'u asboblari haqida fikr yuritar ekan, quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratadi:

1. Cholg'u asboblarning nihoyatda qadimiyligi.
2. Har bir asbobning tuzilishiga xos spetsifik belgilar.
3. Har bir cholg'u asbobi bilan bog'liq terminlarning qo'llanilishi.
4. Har bir cholg'u asbobining chalinish usullari va qaysi o'rinlarda ishlatilishi.

Aytish mumkinki, Fitrat qomusiy olim sifatida musiqa ilmining sir-sinoatlarini chuqur bilgan. Mutafakkir olimning ushbu qarashlari hozirgi musiqa ilmining yorqin sahifasini tashkil etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Фитрат А. Ўзбек классик музыкаси ва унинг тарихи. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
2. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. –784 б.
3. Сафаров О. Шашмақом ватани оҳанглари. – Тошкент: “Фан”, 2009. –156 б.
4. Ҳамидов Ҳ. Ўзбек анъанавий қўшиқчилик маданияти тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –174 б.